
"GULZOR"DA YaNGI BOG'ChA OChILDI

Bugun "Gulzor" mahalla fuqarolar yig'inida ham davlat-xususiy sherikchilik asosida "Kelajak bolalari" nomli maktabgacha ta'lim tashkilotining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda shahar hokimi o'rinbosari Yusufjon Yusupov, shahar DSI boshlig'i Quyoshbek Bekmirzayevlar, mahalla xodimlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishib, tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

Tadbirkor hamda 20 yildan buyon shu sohada faoliyat olib borayotgan Gulsanamxon Mamadaliyeva tomonidan ushbu xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotining ochilishi hisobiga 150 nafar tarbiyalanuvchilarning qamrab olinishiga va 20 nafar fuqaroning doimiy ish bilan band bo'lishlariga erishildi.

Muassasa rahbarining ta'kidlashicha, "Temir daftar" va "Ayollar daftari"da bo'lgan oilalarning 15 nafar farzandlarini bepul tahsil olishlari uchun ham imkoniyat yaratilgan.

2022-07-04 11:37:19